

CREATION OF ELECTRONIC LEARNING LITERATURE SYSTEM SOFTWARE

Khusanboyeva Tursunoy Muhammadqasimdjanovna
Andijan Institute of Mechanical Engineering,
Information Technology in the Economy and
1st year Master's Degree in Systems Specialization
tursunoyxusanboyeva@gmail.com

Annotation

Objective: This article demonstrates that e-learning has great potential to accelerate the learning process as a new tool in the education system.

Methods: The structure of e-learning literature and the technology of its creation are considered.

Outcomes: The creation of e-learning materials is analyzed as a step towards a radical reform of the education system.

Conclusion: E-literature, e-textbooks and e-learning materials help to organize the teaching process with innovative pedagogical technologies and distance learning technologies.

Keywords: e-learning, e-mail, chats, forums, video conferencing, graphics, multimedia, animation, EOM, digest, electronic textbook, stereocopy.

Introduction

Hozirgi davrda ta'lim muassasalaridagi axborot ta'lim muhitiga o'zaro axborotli ta'sir muhiti sifatida qaralishi nuqtai nazaridan kelib chiqib, ota'lim oluvchilarning axborotga, maxsus apparat va dasturiy vositalarga bo'lgan talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadi ko'zda tutiladi.

Hozirgi axborotli o'zaro aloqa tarkibi		
-insonlararo kommu-nikatsiya vositalari (elektron pochta, telefon aloqasi, chatlar, forumlar, videokonferensiyalar va boshqalar)	tashqi va ichki axborot resurslariga ulanish	o'quvchilarga taqdim etiladigan axborot resurslar kiradi


1-Rasm. Hozirgi axborotli o'zaro aloqa tarkibi

Ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini qo'llashda mavjud gipermatn, gipermedia, grafika, animatsiya va ovoz dasturlarining mavjudligi katta samara bermoqda. Axborot texnologiyalarining pedagogik dasturiy vositalari o'qitishda

yangi vositalar sifatida o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, an'anaviy o'qitish vositalaridan tubdan farqlanadi.



2-Rasm. Elektron darslik tuzilmasi



3-Rasm. Elektron darslik tuzilmasi



rasm. Elektron darslik tuzilmasi

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasiga amal qilgan holda axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilayotgan elektron o'quv adabiyotlarning (elektron o'quv adabiyot) strukturasi quyidagi elementlarni o'zida ifoda etishi lozim;

- Muqova;
- Mundarija;
- Qisqacha annotatsiyasi;
- Elektron o'quv adabiyot ning «to'liq bayoni»;
- Elektron o'quv adabiyotning qisqacha bayoni (masalan, sxema ko'rinishda);
- Asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;
- Bilimni nazorat qilish mexanizmi;
- Matn fragmenti bo'yicha izlash amalini bajarish;
- Mualliflar ro'yxati va ular haqida ma'lumot;
- Atamalar ro'yxati;
- Elektron o'quv adabiyot bilan ishlash uchun ma'lumotlar tizimi.

Elektron o'quv adabiyotning muqovasi imkoniyat darajisida chiroyli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun uni grafika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan boyitish zarur. Elektron o'quv adabiyotning muqovasida darslikning nomi, yuqori tashkilot haqida ma'lumot (masalan vazirlik), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqti, elektron o'quv adabiyotni yaratgan tashkilotning nomi, mualliflari haqida qisqacha ma'lumot olish imkoniyati mavjud. Bu

ma'lumotlarning ma'lum bir qismi (mualliflar xaqida ma'lumot, elektron o'quv adabiyotni yaratgan tashkilot, mualliflik huquqi) kabilar maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi. Mundarija elektron o'quv adabiyotning juda muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Mundarija bir tomondan yetarli darajada mavzular ketma-ketligini saqlab, kerakli mavzularga tezkor ravishda murojaat qilishni ta'minlay oladigan darajada, ya'ni gipermurojaatlar bilan boyitilgan bo'lishi va ekranning bir qismida joylashishi kerak.



5-rasm. Elektron darslik yaratish texnologiyasi

Ana'naviy darslikdan elektron o'quv adabiyotning afzalligi uning "intellektual" kuchga ega bo'lishi bilan bir qatorda ma'lumotlarni o'z vaqtida va kerakli joyda taqdim etish imkoniyatga ega ekanligidadir. Elektron o'quv adabiyot ma'lum bir predmet bo'yicha barcha tegishli o'quv materiallarini o'zida ifoda etgan bo'lishi kerak. Uning intellektual darajada bo'lishi esa o'z navbatida oddiy darslikka nisbatan bir qator afzalliklarni tug'diradi. Masalan, ma'lumotlarni tez izlab topish, mavzularni o'zlashtirish darajasini multimedia va grafika elementlari yordamida amalga oshirish va hokazo.

Bundan tshqari ta'lim muassasalari asosiy axborot resurslarini turli fanlarni o'rganishga oid elektron o'quv-metodik majmualari (EO'MM) tashkil etadi. EO'MM deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda hozirgi kunda talab etiladigan zarur interaktivlik, ko'rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko'paytirishda



kam xarajat sarflash, ko'p variantlilik, ko'p bosqichlilik hamda tekshirish uchun topshiriqlar va testlar hajmining ko'p bo'lishini ta'minlaydi.

Zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarining afzalligi shundaki, avvalo, o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iboratdir. Ta'lim jarayoniga EO'MMni joriy etish ta'lim oluvchilarga fan bo'yicha axborotning to'liq manzarasini namoyish etish, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini ta'minlash, o'qitishni individuallashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazoratni takomillashtirish, o'quv jarayonini natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarning afzalligiga dars jarayonining yanada qiziqarli o'tishini ta'minlash xususiyatiga egadir.

Elektron o'quv adabiyotlari zamonaviy axborot texnologiyalari asosida axborotni to'plash, ko'paytirish, yangilash, saqlash, bilimlarni taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba bo'lib xisoblanadi.

Dijest - ilmiy, ilmiy, uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, davlat va turli tashkilotlar faoliyatiga oid qonunlar, me'yoriy hujjatlar, me'yoriy hujjatlarning mazmunini qisqacha bayon qiluvchi va sharhlovchi sohalar to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan davriy nashr.

Elektron darslik - ilmiy ma'lumotlarni, ilmiy o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirish, mustaqil ta'lim olish, kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llash uchun mo'ljallangan.

Elektron darslikda:

- O'Quv Va Ilmiy material faqat og'zaki (matn) shaklda;
- Og'zaki (matn) va qo'sh grafik shakldagi o'quv material;
- Multimedia vositalari, ya'ni ma'lumotlar uch tomonlama grafik shaklda, ovozli, video, animatsiya va qisman og'zaki (matn) shaklda;
- "Taktillik" (hissiyot, sezish) xususiyatiga ega bo'lib, bu o'quvchiga real dunyoning stereokopiyasini tasvirlaydigan va ob'yektlarga nisbatan harakat tasvirini yaratuvchi "ekran olami"ga kirish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar mustaqil tayyorgarligi jarayonida mazkur vositalardan foydalanish ta'lim tizimidagi odatiy bo'lgan o'qitish vazifasi faqat o'qituvchiga taalluqli bo'lgan, tipik vaziyatni o'zgartiradi. EO'MM ta'lim oluvchiga taqdim etilayotgan o'quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko'ra, o'zlashtirishida o'qituvchining o'qitish funksiyasi talabning o'ziga o'tadi. Bunda o'qituvchi o'quvchini faqat qo'llab-quvvatlaydi, o'quv



axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga yordam beradi.

Elektron o'quv-metodik majmualar dasturiy platformasi mavjud operatsion tizim va dasturiy mahsulotlar o'quv markazi boshqaruvida bexato hamda to'g'ri ishlashi zarur. Elektron o'quv-metodik majmualarni yaratishda uning ayrim muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bugungi rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimida EO'MM mazmuni albatta yangi avlod talablariga muvofiq kelishi, shuningdek, bilimlar sohasida zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot darajasiga javob berishi kerak bo'ladi. Elektron o'quv-metodik majmualar tuzilmasi ikki mantiqiy, ya'ni o'zaro aloqador elementlar yoki modullardan iborat bo'lishi zarur bo'lib, alohida modulni ishlab chiqish yoki ko'rib chiqishda ular turli xususiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lishi, umumiy maqsadli alohida elektron o'quv material mazmunida ochilishi kerak bo'ladi. EO'MM interfeysi qat'iy ifodali ko'rinishga ega bo'lishi, ko'rgazmali vositalar paneli foydalanuvchi uchun ishlash texnologiyasini o'zlashtirishda soddalashtiriladi.

Ta'lim oluvchilar bilan o'zaro hamkorlikda EO'MMdan foydalanish va o'quv jarayonini tashkil etish an'anaviy o'quv vositalariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega, jumladan:

- Har qanday geografik nuqtadan o'quv materiallariga ulanish kafolatlanishi;
 - Elektron materiallarni o'z vaqtida yetkazib berilishi;
 - Materiallarni izlashni osonlashtirish, imtihonlarga tayyorgarlikni yengillashtirilishi;
 - O'quv materiallaridan ish joylarida, uyda va mobil telefoni qurilmasini Internet tarmog'iga ulab, yo'lda ham foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
 - Elektron materiallarning o'z vaqtida va operativ yangilanishi kabilardan iborat.
- Bugungi kunda elektron o'quv-metodik majmualarning texnologik asoslari va mazmun-mohiyati tubdan o'zgarib bormoqda. Tekstografik axborotli mazmunga ega ta'lim majmualari o'rniga ovoz, animatsiya, video imkoniyatiga ega, virtual laboratoriya amaliyotlari, qidirish va ekspert tizimlari moduli hamda ichki dasturiy-didaktik algoritmlar, ta'lim oluvchi — pedagog — o'quv material o'zaro munosabati orqali amalga oshiriluvchi multimediyali va interaktiv komplekslar kirib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, elektron adabiyot, elektron darslik va elektron o'quv-metodik majmualar o'qitish jarayonini o'qitishning boshqa shakllari, jumladan, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda masofaviy ta'lim texnologiyalari



bilan tashkil etishda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, balki ta'lim istiqbollarini ta'minlashda yanada katta e'tiborni talab etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2013-yil 2-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida"gi 278-son buyrug'i.
2. П. А. Мандрик, А. И. Жук, Ю. В. Воротницкий, Современный электронный учебно-методический комплекс — основа информационно образовательной среды вуза, Информатизация образования, Минск, 2010 г.
3. Karimov A.A., Imomov E.Z., Ro'ziev K.I., Butayerov O.S. "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini to'g'rilash konsepsiyasi" - T., 2002-yil.
4. Листопад Н. И., Воротницкий Ю. И., Электронные средства обучения: состояние, проблемы и перспективы, Высшая школа. — 2008 г.
5. Abduqodirov A.A. "Dastur va uning tuzilishi". Toshkent. 2014 yil.
6. Veb sayt
<http://uz.infocom.uz/2017/09/03/elektron-oquv-metodik-majmualar-mustaqil-talimning-muhim-omili/> (01.12.2021 12:59)